

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2022-yil yanvar oyi uchun dastlabki ma'lumot)**

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holdamilliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar oyi yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 49,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 4,6 mln. AQSh dollariga yoki 91,5 % nitashkil etdi.



**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar oyi, ming AQSh dollari)**

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	53 936,0	49 350,3	91,5 %	x
Eksport 	34 092,0	31 072,6	91,1 %	100,0
 tovarlar	33 984,5	30 947,3	91,1	99,6
 xizmatlar	107,5	125,3	116,5	0,4
 oltin	-	-	-	-
Import 	19 844,0	18 277,7	92,1 %	100,0
 tovarlar	19 471,0	17 235,0	88,5	94,3
 xizmatlar	373,0	1042,7	279,6	5,7
 Saldo	14 248,0	12 794,9	x	x

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 31,1 mln. AQSh dollariga (8,9 % ga kamaydi) va import hajmi 18,3 mln. AQSh dollariga (7,9 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida 12,8 mln. AQSh dollari qiymatida ijobiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI BILAN TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2022- yil yanvar oyi, mln. AQSh dollari)**



Qoraqalpog'iston Respublikasi, jahonning 49 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Turkiyada (24,8 %), Xitoy Xalq Respublikasida (24,6 %), Rossiya Federatsiyasida (17,4 %), Latviyada (9,9 %), Qozog'istonda (7,7 %), Ukraina (3,3 %) va Afg'onistonda (2,3 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSAda Qirg'iziston, Afg'oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, va Latviya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR
(yanvar oyi, mln. AQSh dollari)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor davlatlar orasidan 12 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Turkiya (8,8 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (13,3 mln. AQSh dollari), Rossiya (8,8 mln. AQSh dollari) va Latviya (3,1 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
(yanvar oyi, ming. AQSh dollari)

Davlat nomi	2020-yil	2021- yil	2022- yil
Turkiya	5210,7	7774,4	8824,9
Eksport	5170,5	6697,6	7723,3
Import	40,2	1076,8	1101,6
Saldo	5210,7	7774,4	8824,9
Xitoy Xalq Respublikasi	12630	12946,9	13308,6
Eksport	8647,6	11040,4	7633,4
Import	3982,4	1906,5	5675,2
Saldo	4665,2	9133,9	1958,2
Rossiya Federatsiyasi	11904,8	9455,1	8815,8
Eksport	9092,6	6751,4	5409,3
Import	2812,2	2703,7	3406,5
Saldo	6280,4	4047,7	2002,8
Latviya	3681,8	2345,9	3110,5
Eksport	3439,8	2345,9	3061,7
Import	242,0		48,8
Saldo	3197,8	2345,9	3012,9
Qozog'iston	5769,3	3774,1	4693,1
Eksport	3465,8	2722,6	2201,3
Import	2303,5	1051,5	2491,8
Saldo	1162,3	1671,1	-290,5
Ukraina	2,9	1523,8	1049,0
Eksport	2,9	1523,8	1017,2
Import			31,8
Saldo	2,9	1523,8	985,4

Davlat nomi	2020-yil	2021- yil	2022- yil
Afg'oniston	33,6	233,9	704,2
Eksport	33,6	233,9	704,2
Import	-	-	-
Saldo	33,6	233,9	704,2
Gruziya	0	150,2	256,1
Eksport	-	150,2	256,1
Import	-	-	-
Saldo	0	150,2	256,1
Qirg'iz Respublikasi	83,1	870	287,1
Eksport	76,1	473,8	227,9
Import	7,0	396,2	59,2
Saldo	69,1	77,6	168,7
Fransiya	8,8	702,9	240,8
Eksport	-	613,7	208,3
Import	8,8	89,2	32,5
Saldo	-8,8	524,5	175,8
Iroq	305,0	381,9	172,5
Eksport	305,0	381,9	172,5
Import	-	-	-
Saldo	305	381,9	172,5
Koreya Respublikasi	2069,3	1717,6	2497,0
Eksport	59,4	100,7	125,3
Import	2009,9	1616,9	2371,7
Saldo	-1950,5	-1516,2	-2246,4
Ozarbajjon	0	33,3	144,3
Eksport	-	33,3	104,8
Import	-	-	39,5
Saldo	0	33,3	65,3



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI


Davlat nomi	2020-yil	2021- yil	2022- yil
Tojikiston	53,3	386,8	103,5
Eksport	53,3	386,8	103,5
Import			
Saldo	53,3	386,8	103,5
Germaniya	9,4	1424,3	268,3
Eksport	0	0,1	17,6
Import	9,4	1424,2	250,7
Saldo	-9,4	-1424,1	-233,1
Pokiston	273,8	11,3	10,7
Eksport	273,8	11,3	10,7
Import			
Saldo	273,8	11,3	10,7
Turkmaniston	95,6	168,6	358,3
Eksport	81,2	2,3	3
Import	14,4	166,3	355,3
Saldo	66,8	-164	-352,3
Borshqa mamlakatlar	32,9	57,6	2,7
Eksport	32,9	57,6	2,7
Import			
Saldo	32,9	57,6	2,7
Yaponiya	6,3	0	269,2
Eksport	-	-	97,9
Import	6,3	-	171,3
Saldo	-6,3	0	-73,4
Armeniya	-	-	45,0
Eksport	-	-	44,4
Import	-	-	0,6
Saldo	-	-	43,8

Qoraqalpog'iston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining uchdan birqismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'ngi yillarda biroz o'zgardi.

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2022- yilning yanvar oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 31,4 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi 1,2 % ga ko'paydi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY
DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar oyi, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022- yilning yanvar oyida 2021- yilning shu davriga nisbatan 31,4 % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi 68,6 % ni tashkil etdi.


**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI
(2022-yil yanvar oyi)**

Joriy yilning yanvar oyida mamlakatning eksportyorlari soni 60 tani tashkil etib, ular tomonidan 31,1 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 91,1 % nitashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 9,7 % ni tashkil etib, ular asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (80,4 %), sanoat tovarlari (8,8 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (4,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar oyi, ulushi, % da)**





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2022-yil yanvar)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mingAQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mingAQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mingAQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	31 072,6	91,1	100,0	9 111,4	76,4	100,0	21 961,2	99,1	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 756,5	106,7	5,7	641,2	103,8	7,0	1 115,3	108,4	5,1
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0		0,0	0,0	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 444,9	34,0	4,7	28,4	62,2	0,3	1 416,5	33,7	6,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0		0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-		-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	24 968,6	100,8	80,4	8 073,8	78,7	88,6	16 894,9	116,5	76,9
Sanoat tovarlari	2 728,4	100,3	8,8	197,1	23,8	2,2	2 531,3	133,9	11,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,0	-	0,0		-	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	48,8	29,2	0,2	48,8	358,6	0,5		0,0	0,0
Xizmatlar	125,3	116,5	0,4	122,1	249,4	1,3	3,2	5,5	0,0

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hissasiga to'g'ri kelmoqda, eksport hajmi bo'yicha keyingi o'rinlar sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda nooziq-ovqat xomashyoga (yoqilg'idan tashqari) to'g'ri kelmoqda.

2022- yilning yanvar oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2021- yilning yanvariga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari), sanoat tovarlari hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o'sish kuzatildi.



**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar oyi, % da)**

XSST tarkibi	2020-yil	2021- yil	2022- yil
Jami	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,8	4,8	5,7
Ichimliklar va tamaki	-	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	9,4	12,5	4,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,4	1,3	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,0	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	75,8	72,6	80,4
Sanoat tovarlari	10,8	8,0	8,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	-	0,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	0,0	0,5	0,2
Xizmatlar	0,8	0,3	0,4



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR
EKSPORTI TARKIBI
(2022-yilyanvar)**

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	1102,2	79,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	652,6	252,7
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar		
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	2,2	73,3
Har hil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar		
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	0,5	41,7
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar		
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idadantashqari		
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	1270,5	32,2
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	141,4	91,7
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	7,0	152,2
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	26,1	93,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar		
Hayvonvao'simliklarmoylari (yog'lari), yog'larvamumlar		
O'simlikmoylarivayog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	12470,8	50,4
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	27,0	
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar		
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar		
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar		



Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	2710,3	99,8
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	18,1	22,6 b.
Cho'yan va po'lat		
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar		
Teri, boshqa boshqa bo'lmagan tayyor charm mahsulotlari, mo'ynalar		
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	-	-
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari		
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari		
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunolari		
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar		
Maxsus bo'limlar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar		
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	4,4	32,4
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	44,4	28,9
Kiyim-kechaklarva kiyim-kechak anjomlari		
Santexnika, isitish va yoritish uskunolari uchun binolar, armatura va armatura bloklari, boshqa toifalarga kiritilmagan		
Xizmatlar		
Moliyaviy xizmatlar	44,7	95,1
Transport xizmatlari	74,1	131,6
Safarlar (turizm)	6,4	152,4
Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar	-	-
Qurilish xizmatlari	-	-

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020-yilning yanvariga 41,2 % dan 2022- yilning yanvar

oyida 29,3 % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 70,7 % ni tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR
EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar oyi, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2022- yilning yanvaroyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Turkiya (24,8 %), Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 24,6 % i), Rossiya Federatsiyasi (17,4 %), Latviya (9,9 %), Qozog'iston (7,1 %), Ukraina (3,3 %) va Afg'oniston (2,3 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 89,4 foizni tashkil etmoqda.



RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2022-yil yanvaroyi, % da)



2022- yilning yanvar oyida, o'tgan yildagi kabitovlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasining ikki pog'onaga tushishi hisobiga, Turkiya eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Joriy yilning yanvar oyida hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2021-yilning mos davriga nisbatan 28 davlatdan 27 davlatga kamaydi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH
SUR'ATLARI
(2022- yil yanvar oyi, ming AQSh dollari)**

Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.
Turkiya	6697,6	7723,3	129,5	115,3	3	1
Xitoy Xalq Respublikasi	11040,4	7633,4	127,7	69,1	1	2
Rossiya	6751,4	5409,3	74,3	80,1	2	3
Latviya	2345,9	3061,7	68,2	130,5	5	4
Qozog'iston	2722,6	2201,3	78,6	80,9	4	5
Ukraina	1523,8	1017,2	52826,3	66,8	6	6
Afg'oniston	233,9	704,2	695,8	301,1	12	7
Gruziya	150,2	256,1		170,5	13	8
Qirg'iz Respublikasi	473,8	227,9	622,9	48,1	8	9
Franciya	613,7	208,3		33,9	7	10
Iroq	381,9	172,5	125,2	45,2	10	11
Iron		141,4				12
Koreya Respublikasi	100,7	125,3	169,4	124,4	14	13
Ozarbajjon	33,3	104,8		315,0	21	14
Tojikiston	386,8	103,5	726,2	26,8	9	15
Yaponiya		97,9				16
Armeniya		44,4				18
Tayvan		37,5				19

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari) kiradi.




**RESPUBLIKANING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar oyi, ming AQSh dollari)**

XSST tarkibi	Xitoy		Turkiya		Rossiya		Qozog'iston	
	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.
Jami eksport	11 040,4	7633,4	6697,6	7723,3	6751,4	5409,3	2722,6	2201,3
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	112,8	108,3	79,2		73,5	-	510,7	605,2
Ichimliklar va tamaki							5,0	
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3301,9	925,9	100,8	4,6	23,2	18,2	22,5	7,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	-	-	-	-	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	5826,2	5189,2	6314,9	6596,9	5803,1	5361,2	2146,5	1495,5
Sanoat tovarlari	1645,7	1409,7	202,4	1121,6	824,8		4,8	0,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari								
Turli xil tayyor buyumlar	153,5						13,6	4,4
Xizmatlar	0,4	0,2	0,3	0,2	26,8	29,8	19,5	89,2

Xizmatlar eksporti hajmi 125,3 ming AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,4 % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,1 % ga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (5,1 %), transport (59,2 %) hamda moliyaviy xizmatlar (35,7 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2022- yil yanvar, ulushi, % da)




MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 620,8 ming AQSh dollari qiymatli 3796,8 tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2021-yilning mos davriga nisbatan 1,9 ming AQSh dollarida usish kuzatilib, 100,3 % ga ko'paydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 580,9 ming AQSh dollariga teng 3749,4 tonna sabzavot, shuningdek, 25,5 ming AQSh dollari qiymatidagi 25,5 tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 55,3 % ni tashkil etdi.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI
(2022- yil yanvar, ming AQSh dollari)**



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (94,1 %), Izroyl (5,1 %) va Ozarbayjon (0,8 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Bugungi kunda Qoraqalpog'istondameva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'plangan tajriba bilan ham bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo'jaligi xomashyosini sanoat asosida qayta ishlashga va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI
(yanvar)**

Davlat nomi	2021- yil			2022- yil		
	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da
Qozog'iston	2672,7	479,7	77,5	3785,6	584,4	94,1
Izroyl	-	-	-	7,3	31,7	5,1

Davlat nomi	2021- yil			2022- yil		
	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da
Ozarbayjon	-	-	-	4,0	4,7	0,8

*-qiymat ifodasida



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 2851,7 ming AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 9,2 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 103,6% ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (95,0 %) hamda ipak va ipak mahsulotlari (5,0 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 11 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 5 ta davlatiga eksport qilindi.

Respublikaning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI
(yanvar, ming AQSh dollari)

Tovar nomi	2020-y.	2021-y.	2022-y.
 Paxtadan yigirilgan ip	3332,5	2715,2	2531,2
 Ipak va ipak mahsulotlari	-	36,6	141,4
 Naqshli mato	-	-	-
 Gilamlar va boshqa to'qimachilik pol qoplamalari	-	-	-
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	-	-	-
 Paxta mahsulotlari	-	-	-
 Boshqa tayyorlangan to'qimachilik, lattalar	-	-	179,0

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (1409,7 ming AQSh dollari – 49,4 %), Turkiya (1121,6 ming AQSh dollari – 39,3 %) va Eron (141,4 ming AQSh dollari – 5,0 %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.



ALOHIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI
(yanvar, ming AQSh dollari)





**DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI
EKSPORTI DINAMIKASI
(yanvar ming AQSh dollari)**

Davlatlar	2020-yil	2021- yil	2022- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	1111,1	1645,7	1409,7
Rossiya Federatsiyasi	1160,5	824,8	-
Turkiya	758,7	202,4	1121,6
Pokiston	273,8	-	-
Partugaliya	-	42,3	-
Ukraina	-	-	110,2
Iron	-	-	141,4
Hindiston	-	36,6	-
Polsha	28,4	-	-
Ozarbajjon	-	-	68,8


**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI
(2022-yil yanvar)**

2022- yilning yanvar oyida import hajmi 18,3 mln. AQSh dollarini va 2022-yilning mos davriga nisbatan 92,1 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (34,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (15,7 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar(16,4 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar oyi, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,3 mln. AQSh dollariga ko'paydi va 92,1 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1,0 mln. AQSh dollariga yetdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2022-yil yanvar)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	mumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	mumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	mumiy hajmga nisbatan, % da
Jami import	18 277,7	92,1	100,0	6 392,3	145,9	100,0	11 885,4	76,9	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2 878,6	130,9	15,7	2 501,2	232,4	39,1	377,4	33,6	3,2
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 034,2	103,9	5,7	1 027,1	103,2	16,1	7,1	-	0,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	958,9	102,0	5,2	471,1	111,2	7,4	487,8	94,5	4,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	279,4	37,6	1,5	279,4	37,6	4,4	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2 999,0	128,8	16,4	516,9	370,3	8,1	2 482,1	113,4	20,9
Sanoat tovarlari	2 333,0	176,0	12,8	1 494,6	157,8	23,4	838,4	221,6	7,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	6 260,9	59,5	34,3	47,6	106,4	0,7	6 213,3	59,3	52,3
Turli xil tayyor buyumlar	490,9	118,8	2,7	54,2	471,8	0,8	436,7	108,7	3,7
Xizmatlar	1 042,7	279,6	5,7	-	-	0,0	1 042,7	279,6	8,8

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2020- yilning mos davriga nisbatan nooziq-ovqat xomashyo,

yoqilg'idan tashqari importining ulushi 5,0 % dan 5,7 % gacha o'sdi, mashinalar va transport asbob-uskunalari 53,0 % dan 47,6 % ga, turli xil tayyor buyumlar ulushi esa 2,1 % dan 2,7 % ga tashkil etdi.



**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2021- yil yanvar, ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2020-yil	2021- yil	2022- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	18,0	11,1	15,7
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11,0	5,0	5,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shungao'xshash materiallar	0,6	4,7	5,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	3,7	1,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	6,9	11,7	16,4
Sanoat tovarlari	1,4	6,7	12,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	46,6	53,0	34,3
Turli xil tayyor buyumlar	7,0	2,1	2,7
Xizmatlar	8,3	1,9	5,7

Xizmatlar importining tahlili shuni ko'rsatdiki, 2021- yilning yanvar oyida 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan jami importdagi ulushi 1,9 % dan 5,7 %ga ko'paydi.



ALOHIDA IMPORT TOVARLAR
(2022- yilyanvar oyi, ming AQSH. doll.)



XSTT BO'YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI
(2022-yil yanvar)

Mahsulot nomi	Ming AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2177,9	361,6
Tirik hayvonlar	377,1	31,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	76,3	31,8 b
Sabzavotlar va mevalar	127,7	217,5
Go'sht va go'sht mahsulotlari	8,1	24,8
Shakar mahsulotlari va asal		
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	19,9	24,4
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqa simonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va ulardan tayyorlangan yarimtayyor mahsulotlar		
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	91,7	44,1
Hayvonlar uchun ozuqa		
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	-	-
Nooziq-ovqatxomashyo, yoqilg'ிடantashqari		

Probka va yog'och-taxtalar	997,3	100,4
Tabiiy kauchuk (shu jumladan sintetik kauchuk va qayta ishlangan kauchuk)	29,8	-
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	7,1	273,1
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo		
To'qimachilik tolalari		
Qog'oz va makulatura		
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	899,8	108,9
Ko'mir, koks va briketlar	59,2	59,4
Tabiiy yoki sun'iy gaz		
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari		
Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	279,4	37,6
Hayvonlar moylari va yog'lari	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	253,5	183,4
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	18,3	469,2
Kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1460,6	111,3
Organik kimyo moddalari	1173,3	196,1
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	93,2	35,8
Noorganik kimyo moddalari		
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga tayyorgarlik, jilolash va yuvish vositalari		
O'g'itlar		
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	426,0	365,7
Rezina buyumlari	40,2	478,6
Boshqa boshqa bo'lmagan metall buyumlar	72,1	25,5
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	13,6	85,5
Ruda metall bo'lmagan mineral mahsulotlar.	80,5	53,3
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	1692,0	229,4
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	8,5	63,0
Rangli metallar		
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		


Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	3,5	70,0
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	4259,2	63,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	1122,6	251,9
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning elektr qismlari	173,8	35,6
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunolari		
Metallarni qayta ishlash mashinalari	8,7	-
Kantselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar		
Avtomobillar	693,2	100,9
Boshqa transport vositalari		
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	14,8	78,3
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	191,0	59,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	231,3	329,5
Poyabzal	1,2	171,4
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	1,1	-
Mebel va uning qismlari, yotar joy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	51,4	-
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar		
Xizmatlar		
Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar	857,7	772,0
Transport xizmatlari		
Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari		
Moliyaviy xizmatlar	184,9	100,2

Turli xil tayyor buyumlar importi hajmlarining kamayishiga Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari (59,1 % ga pasaygan), har xil tayyor buyumlar (78,3 % ga pasaygan) importining kamayishi ta'sir qilgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi kamayishiga esa, Tirik hayvonlar (31,1 % ga pasaygan) importining kamayganligi bevosita ta'sir etgan.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA
XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvaroyi, mln. AQSh dollari, ulushi,% da)



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 31,0 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini(18,6 %) ortda qoldirgan holda birinchi o'rinni egalladi.

2022- yilning yanvar oyi yakuni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi tomonidan 86 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK
HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar oyi)**

Davlat nomi	Ming AQSH dollari		o'sish sur'ati, % da		o'rni	
	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	1906,5	5675,2	47,9	297,7	4	1
Rossiya Federatsiyasi	2703,7	3406,5	96,1	126,0	2	2
Qozog'iston	1051,5	2491,8	45,6	237,0	8	3
Koreya Respublikasi	1616,9	2371,7	80,4	146,7	5	4
Turkiya	1076,8	1101,6	2675,8	102,3	7	5
BAA	500,5	439,0	4570,3	87,7	9	6
Turkmaniston	166,3	355,3	1156,1	213,6	14	7
Niderlandiya	91,2	350,4	36622,5	384,3	18	8
Estoniya		317,7				9
Eron	44,4	281,6	14,3	634,9	21	10
Buyuk Britaniya	164,4	273,2	97,5	166,2	15	11
Germaniya	1424,2	250,7	15183,5	17,6	6	12
Polsha	224,8	222,1	218,4	98,8	12	13
Yaponiya		171,3				14
Gonkong	0,9	120,0	1,8	13620,9	27	15
Litva	129,6	114,2	381,6	88,1	17	16
Chexiya Respublikasi	5313,3	70,2			1	17
Qirg'iz Respublikasi	396,2	59,2	16,1	2343,0	10	18
Latviya		48,8				19
Ozərbayjon		39,5				20

Shuni ta'kidlash kerakki, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Vyetnam kabi mamlakatlar Qoraqalpog'iston Respublikasiga tovar va xizmatlar importidagi yirik hamkor davlatlar birinchi yigirmataligiga kirdi.

Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, BAA va Turkmaniston Respublikasi) jami importning 86,7 % ulushini tashkil qildi, bu 18,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2022- yil yanvar oyi, % da)




Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilanganisari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi tomonidan kiritilgan

katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI
(2022-yil yanvar oyi, ulushi, % da)



- Transport xizmatlari
- Safarlar (turizm)
- Moliyaviy xizmatlar
- Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari
- Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar

2022- yilning yanvar oyi yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 1 042,7 ming AQSh dollarini yoki jami import hajmining 5,7 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 3,8 % ga ko'paydi. Shuningdek, moliyaviy xizmatlar (17,7 %) va transport xizmatlari (82,3 %) tashkil etdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel: (61) 224-92-06